

BUDJETDAN TASHQARI MABLAG‘LARNI SHAKLLANISH VA ULARDAN FOYDALANISH

Karshibaeva Salamat Norkulovna

O‘zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyami magistri

Annotatsiya: Respublika va boshqa maqsadli mablag‘larni yaratishdan maqsad bozor iqtisodiyoti sharoitida eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni samarali va o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, byudjetdan tashqari mablag‘lar

Byudjetdan tashqari mablag‘lar O‘zbekiston moliya tizimining muhim elementi bo‘lib, aholining ijtimoiy himoyasini ta‘minlash va sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mablag‘lar davlat byudjeti bilan parallel ravishda ishlaydi va mamlakatning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi sharoitida ularni ajralmas holga keltiradigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qonunchilikdagi doimiy o‘zgarishlar, ijtimoiy ta‘minot va sog‘liqni saqlash tizimlari oldida turgan yangi vazifalar sharoitida byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish tamoyillarini o‘rganishning dolzarbligi ayniqsa ahamiyatli bo‘lib bormoqda.

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish, qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon, ayniqsa, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport kabi sohalarda xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi.

Budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish manbalari xilma-xil bo‘lishi mumkin. Bularga pullik xizmatlar ko‘rsatish, ijara daromadlari, grantlar, homiylik mablag‘lari, xayriyalar va boshqa qonuniy yo‘llar bilan olingan daromadlar kiradi. Ushbu mablag‘lardan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash muhimdir.

Mablag‘lardan foydalanish mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim:

- ✓ maqsadli yo‘nalishlarni aniq belgilash;
- ✓ mablag‘larni rejalashtirish va sarflash jarayonlarida ochiqlikni ta‘minlash;
- ✓ xarajatlarning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va nazoratni kuchaytirish;

Shuningdek, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan loyihalar va xarajatlar to‘g‘risida jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib borish muhim.

Takomillashtirishning yana bir yo‘nalishi – budjet tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Bu, o‘z navbatida, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi xizmat turlarini taklif etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini beradi. Bunday faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va soliq imtiyozlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish manbalari xilma-xil bo‘lishi mumkin. Bularga pullik xizmatlar ko‘rsatish, ijara daromadlari, grantlar, homiylik mablag‘lari, xayriyalar va boshqa qonuniy yo‘llar bilan olingan daromadlar kiradi. Ushbu mablag‘lardan foydalanishda shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlash muhimdir.

Mablag‘lardan foydalanish mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim: maqsadli yo‘nalishlarni aniq belgilash, mablag‘larni rejalashtirish va sarflash jarayonlarida ochiqlikni ta‘minlash, xarajatlarning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va nazoratni kuchaytirish. Shuningdek, budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan loyihalar va xarajatlar to‘g‘risida jamoatchilikni muntazam ravishda xabardor qilib borish muhim.

Budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari tahlili (Jizzax viloyatining бюджет ташкилотлари мисолида)

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan 4 ta oliygohning budjetdan tashqari mablag‘lari manbalari hamda xarajat yo‘nalishlarini alohida tahlil qilamiz:

Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU) misolida:

1. Budjetdan tashqari mablag‘lar hajmi (mln so‘m):

Tahlil: 4 yil mobaynida JDPUda tushumlar qariyb 74%ga o‘sgan. Asosiy manbalar:

- Kunduzgi va sirtqi ta‘lim bo‘yicha shartnoma to‘lovlari;
- Ijaraga berilgan binolardan tushumlar;
- Ilmiy-tadqiqot va xalqaro loyihalar;

Mablag‘larning yo‘nalishi:

- 35% — Moddiy-texnik bazani yaxshilash;
- 25% — Xodimlarni moddiy rag‘batlantirish;
- 20% — Ilmiy ishlar;
- 10% — Ta‘lim jarayonini raqamlashtirish;

2. Moliyaviy samaradorlik:

Jizzax davlat pedagogika unversitet mablag‘larni asosan ta‘lim sifatini yaxshilashga va infratuzilmani modernizatsiya qilishga sarflamoqda. Har yili yangi laboratoriyalar tashkil etilmoqda, auditoriyalar ta‘mirlanmoqda.

Jizzax politexnika instituti (JPTI) misolida tahlil

Tahlil: 4 yillik o‘rish — 60.5%. JPTI texnopark, startaplar va innovatsiya markazi faoliyati orqali budjetdan tashqari mablag‘larini kengaytirgan.

Mablag‘lar yo‘nalishlari:

- 30% — Texnik uskunalar sotib olish;
- 28% — Mutaxassislar rag‘batlantirilishi;
- 22% — Ishlab chiqarish amaliyoti va loyihalar;

O‘zgacha xususiyat: JPTI talabalarni ishlab chiqarish bilan bog‘lashda (dual ta‘lim) mablag‘larni yaxshi yo‘naltirmoqda.

Milliy universitet Jizzax filiali (MUJF)

Tahlil: Tushumlar qariyb 77.7%ga oshgan. Asosiy tushumlar ota-onalar to‘lovlari va xalqaro sertifikat dasturlaridan kelmoqda.

Mablag‘lar yo‘nalishlari:

- 28% — Ta‘lim jarayoniga zamonaviy usullar joriy qilish;
- 30% — Xodimlar malakasini oshirish;
- 18% — Ilmiy-tadqiqot ishlari;

Qo‘shimcha omil: Ingliz tili va IT sohasida xalqaro mutaxassislarni jalb qilish xarajatlari ham mavjud.

Qozon federal universiteti Jizzax filiali (QFUJF)

Tahlil: 91% o‘shish — bu filialda juda samarali moliyaviy boshqaruvni ko‘rsatadi. Rossiya universiteti bilan hamkorlik qilib, xalqaro grantlar jalb etilgan.

Mablag‘lar taqsimoti:

- 26% — Ta‘lim tizimiga rus standartlarini joriy etish;
- 32% — O‘qituvchilar uchun moddiy qo‘llab-quvvatlash;
- 15% — IT infratuzilma (CMS, LMS tizimlar);

Shuningdek, jizzax viloyatida 2020–2024 yillar mobaynida budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari hisobiga amalga oshirilgan moliyaviy xarajatlar hududlar kesimida sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu xarajatlar asosan moddiy-texnika bazani rivojlantirish, xizmatlar ko‘rsatish, joriy va kapital ta‘mirlash, xizmat safarlari hamda boshqa ehtiyojlar uchun sarflanganligini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Jizzax viloyatidagi budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalardan 2020-2024 yillar davomida moddiy texnik bazasini rivojlantirish, xizmatlar, joriy va kapital ta‘mirlash, xizmat safarlari hamda boshqa ehtiyojlar uchun qilingan xarajatlari to‘g‘risida tumanlar kesimida ma’lumot

T/R	Hudud nomi	Yillar					Jami
		2020	2021	2022	2023	2024	
1	Arnasoy tumani	7.3	20.9	3.9	28.6	18.6	79.3
2	Baxmal tumani	4.5	8.6	13.1	74.4	53.3	153.8
3	Jizzax shahar	8.7	20.2	25.8	85.2	65.6	205.5
4	G'allarol tumani	6.0	8.9	11.3	35.3	40.4	101.9
5	Do'stlik tumani	34.7	38.8	12.4	21.8	42.4	150.1
6	Zomin tumani	7.0	41.4	37.8	58.2	38.4	182.9
7	Zarbdor tumani	36.6	37.1	5.9	24.2	34.4	138.2
8	Zafarobod tumani	3.4	4.9	4.4	14.9	20.8	48.4
9	Mirzacho'l tumani	5.3	7.5	8.5	33.8	40.3	95.4
10	Paxtakor tumani	13.2	14.4	7.8	34.3	19.4	89.1
11	Forish tumani	7.4	64.7	11.1	52.3	39.8	175.2
12	Sh.Rashidov tumani	102.1	14.0	11.8	60.1	40.6	228.6
13	Yangiobod tumani	4.7	8.1	4.0	20.1	26.1	63.0
14	Amaliyot	1,175.8	846.3	260.1	624.6	709.6	3,616.4
x	Jami	1,416.7	1,135.6	417.9	1,167.8	1,189.8	5,327.7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi dasturiy majmuasidan olingan. Muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax shahri ushbu davrda eng yuqori mablag'ni o'zlashtirgan hududlardan biri bo'lib, umumiy 205,5 mlrd so'm ajratilgan. Shuningdek, Sh. Rashidov tumani ham yuqori darajada — 228,6 mlrd so'm bilan yetakchi hududlar qatorida turibdi. Ulardan so'ng Do'stlik tumani (182,9 mlrd so'm) va Forish tumani (175,2 mlrd so'm) yuqori ko'rsatkichlarga ega. Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda Baxmal tumani (153,8 mlrd so'm) va Paxtakor tumani (122,4 mlrd so'm) ham salmoqli mablag'larga ega bo'lgan. Eng kam xarajatlar Zafarobod tumani (48,4 mlrd so'm) va Yangiobod tumani (63,0 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu tumanlardagi iqtisodiy faollik yoki ehtiyoj darajasining pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yillar kesimida tahlil qilinganda: 2020 yilda — 1 416,7 mlrd so'm;

2021 yilda — 1 135,6 mlrd so‘m; 2022 yilda — 417,9 mlrd so‘m; 2023 yilda — 1 167,8 mlrd so‘m; 2024 yilda — 1 189,8 mlrd so‘m sarflangan. Bu yerda 2022 yildagi pasayish (417,9 mlrd so‘m) ayniqsa ko‘zga tashlanadi. Bu holat ehtimol pandemiyaning iqtisodiy ta’sirlari, resurslarning qayta taqsimlanishi yoki boshqa makroiqtisodiy sabablar bilan izohlanishi mumkin. Ayniqsa Sh. Rashidov tumanida 2020 yilda ajratilgan 102,1 mlrd so‘m e’tiborga molik — bu umumiy mablag‘ning 44,6%ini tashkil etadi. Keyingi yillarda esa mablag‘lar bosqichma-bosqich kamayib borgan, bu ehtimol, avvalgi yillardagi yirik loyihalarning tugallanishi bilan bog‘liq. Jizzax shahri esa barqaror tarzda yil sayin ancha yuqori darajada mablag‘ jalb qila olgan. Bunda shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini yaxshilash loyihalari asosiy omil bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, jadval tahlili jarayonida Jizzax viloyatida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va foydalanish jarayonlari hududiy o‘zgaruvchanlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday farqlarning aniq sabablarini va natijalarini chuqurroq o‘rganish kelgusida mablag‘ taqsimotini samarali tashkil etishda muhim omil bo‘ladi.

Takomillashtirishning yana bir yo‘nalishi – budjet tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Bu, o‘z navbatida, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi xizmat turlarini taklif etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini beradi. Bunday faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va soliq imtiyozlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanishda xalqaro tajribani o‘rganish foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, rivojlangan davlatlarda bu boradagi ilg‘or amaliyotlarni tahlil qilish, ulardan eng maqbul va mos keladiganlarini mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va ularning ekspertlaridan maslahat olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmini takomillashtirish davlat xizmatlari sifatini oshirish, qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda shaffoflik, hisobdorlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va kadrlarning malakasini oshirish kabi omillarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iqtisodiyotning ilmiy-amaliy asoslari: Darslik-Toshkent: U.O‘. Azizov, H.P. Abulqosimov, N.A. Xoliyarov, A.A. Ismailov; - T.: «Iqtisod-Moliya», 2022. — 512 b
2. Baltabayeva G.R. va boshqalar. O‘zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari. -T: "Format poligraf" nashriyoti, 2016, 205 bet
3. Ayupov R.X., Baltabayeva G.R. Rakamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. -T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018, 172 bet.